



O'ZBEK MENTALITETIMIZDA AKS ETTIRILGAN MILLIY QADRIYATLARIMIZ

Mirzaaxmedova Shaxzoda Otabek qizi

*O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
1-sonli Toshkent akademik litseyining
o'quvchisi*

***Annotatsiya:** Ushbu maqola milliy san'at va madaniyatimiz rivoji mobaynida, o'zbek mentalitetimiz negizida sayqallanib kelayotgan milliy-an'anaviy qadriyatlarimiz to'g'risida fikr yuritadi. Ma'naviy qiyofaning kelib chiqishi butun xalqning tarixi bilan uzviy bog'langan holda, u millatning mavjud va idrok etish mumkin bo'lgan belgilaridan biridir. Jamiyat hayotining muhim tarkibiy qismlaridan biri mentalitet va ma'naviy qadriyatlardir.*

***Kalit so'zlar:** san'at, madaniyat, mentalitet, qadriyat, xalq, jamiyat, tarix.*

Respublikamizda yurtboshimizning tashabbuslari bilan san'at va madaniyat sohasining rivojlanishi uchun bir nechta bosqichda keng imkoniyatlar yaratilib kelinmoqda. Xususan, jahon miqyosidagi ilg'or tajribalar asosida zamonaviy madaniyat va san'at muassasalarini barpo etish, ularning texnik ba'zasini mustahkamlovchi, ijodkor ziyolilarni har tomonlama qo'llab – quvvatlash masalalariga ustuvor ahamiyat qaratilyapti. Shu o'rinda, yoshlarning madaniy savyasini yuksaltirishda, ularni milliy va umumbashariy madaniyatimizning eng yaxshi namunalariidan bahramand etish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilyapti.

San'at va madaniyat – inson faoliyatining ramziy qurilmalar va asarlar majmuidir. Madaniyat: musiqa, adabiyot, badiiy tasvir, me'morchilik, teatr, kinematografiya turmush tarsi kabi faoliyatlarda namoyon bo'lishi mumkin.

Insonning mentaliteti, ilk bor iltimoiy-ma'daniy an'analardan va xalqning tarixiy qadriyatlari assosida shakllanadi. Tarixan tarkib topgan individual va ijtimoiy mentalitet u yoki bu xalqning madaniyati, dini, hayot tartibi, falsafiy g'oyalari, ta'lim tizimi mahsulidir, boshqacha aytganda ma'naviy subsansiyasidir. Milliy ma'naviy qadriyatlarimiz ijobiy-axloqiy sifatlarni takomillashtirish, davlat va millat rivojiga to'g'anoq bo'ladigan salbiy illatlarni bartaraf etishi omillidir. Milliy g'oya va ma'naviy qadriyatlar orasida uzviy aloqadorlik, o'zaro ta'sir mavjud bo'lib, bu quidagilarda o'z ifodasini topadi: milliy qadriyatlar milliy g'oya uchun ma'naviy negiz, manba bo'lib xizmat qiladi; milliy g'oya qadriyatlarni boyitish, yanada yuksak bosqichga ko'tarish, odamlar ongi va qalbiga milliy qadriyatlarni singdirish omili bo'lib hisoblanadi; milliy g'oya xalqning tub manfaatlari nuqtai nazaridan mavjud ma'naviy qadriyatlarga baho beradi, ijobiy



jihatlarni rivojlantirish, salbiy holatlarni inkor etishning ma'naviy mexoni bo'lib maydonga chiqadi.

Mentalitet – ayrim kishi yoki ijtimoiy guruhga xos aqliy qobiliyat darajasi, ma'naviy salohiyat. Jamiyat millat yoki shaxsning o'ziga xos an'analari, urf – odatlari, diniy e'tiqodini ham qamrab oladi. Har bir millatning mentaliteti uning tarixi, yashab turgan shart – sharoiti, ijtimoiy faolligi va boshqa bir qancha omillar bilan bog'langan bo'ladi. Masalan: o'zbek millati mentalitetining shakillanish jarayoni deyarli uch yarim ming yillik tarixga ega. O'zbek xalqi insoniyat moddiy va ma'naviy madaniyatini bebaxo durdonalari bilan boyitgan. O'zbek mentalitetimizda avvalo milliy qadriyatlarmizning aks ettirilganligini ko'ramiz. XXI asr o'zbek xalqi tarixi va milliy qadriyatlarni o'rganish sohasida yangi zarvaraqlar muhrlanmoqda. Bugungi kunda tariximizning noma'lum bosqich va qirralari qaytadan kash etilmoqda. O'zbekiston mustaqilligidan so'ng, o'zbeklarning qadimiy davlatchilik an'analari, etnik tarixi va etnogeneziga qator salmoqli tadqiqotlar yaratilmoqda. Lekin, afsuski hozirga qadar o'zbek xalqining mentaliteti, uning o'ziga xos tomonlari, milliy yutuqlari va nuqsonlari borasida tadqiqotlar aytarli ko'zga tashlanmayapti. Bizga ma'lumki, tarixda har bir millatning shu jumladan, o'zbeklarning ham aqliy – ruhiy qiyofasi, milliy mintaliteti etnik tabiiy – iqlimiy shart – sharoitlar doirasida shakillangani bois, tarixiy jarayonlarga bo'lgan munosabati turli bo'lishi shubhasiz. Zero, milliy o'ziga xosliklar uzoq tarixiy davrdagi ijtimoiy – iqtisodiy siyosiy jarayonlar, tabiiy geografik o'rnashuv, o'zaro etno madaniy aloqalar, diniy mansubliklar asosida qaror topadi. Xalqning ruhiy psixologik qarashlari negizida esa, qadimiy an'analar, urf – odatlar va marosimlar shakillanadi.

O'zbek xalqining milliy mentaliteti haqida so'z yuritishdan oldin shuni alohida aytib o'tish joizki, o'zbek xalqi 4 ta mafkuraviy – diniy bosqichni (zardo'shtiylik, buddaviylik, islom, kommunistik) o'z boshidan kechirganligini va har bir diniy – mafkuraviy ta'sirlar davri tugaguncha necha avlodlar almashganini va bu jarayonlarning millat fe'l – atvorida o'chmas iz qoldirganini unutmaslik kerak. O'zbek ulusi o'ziga xos milliylikimiz shakillanish jarayoniga ega xalqdir. Tarix guvoh beradiki, o'zbek xalqi mazkur hududda yashagan tub etnoslardan tomir olgan, ikkinchi idizini esa qadimiy turkiy xalqlardan boshlagan. Har ikkala asosiy ildizarning birikishi – o'zaro sintezi o'zbek elatini va keyinchalik o'zbek millatini tashkil etgan. Bugungi kunda o'ziga xos tarzda tarix rivojlanayotgan shaharsozlik va me'morchilik an'analirimiz, boy folklor na'munlarimiz, yozma me'ros, adabiyot, san'atga bo'lgan qiziqishlarimiz, ezgulik va yovuzlik o'rtasida



kurash, kinot va zamin, inson va havo, o'lim va abadiyat haqidagi asotir va rivoyatlarimizda, asosan o'troq, madaniyat sohiblariga tegishli bo'lgan:Navro'z, Mehrjon, Sada, Gul sayllari, Hosil bayrami kabi sayllarning davomiyligi udumlarimiz, uruf – odatlarimiz, milliy an'anayu qadriyatlarimiz rivoj topayotganiligining yaqqol na'munasidir. O'zbeklarning negizida g'arb – sharq degan tushuncha ham mavjud. Bunda G'arb qonunlari sharq urf – odatlari bilan boshqariladi. 1. Sharqda shu jumladan o'zbeklarning turmush tarzida ko'plab urf – odatlari qonunlar darajasida yuqori turadi. Jumladan, oila davrasida keng jamoatchilik o'rtasida o'tkaziladigan barcha ma'rosimlarimizda mahallaning bosh-qosh bo'lishi, qo'ni – qo'shnichilik an'analarimiz, oila – turmush marosimlarimizdagi ko'plab urf – odatlar qonun darajasida bajariladi. 2. G'arbda shaxs jamoaga o'zligini yuzaga chiqarish, iste'dodi va imkoniyatlarini namoyish etish, muayyan maqsadlarga erishish vositasi sifatida qaraydi. Jamoa insonning ichki botiniy dunyosi, ruhiyati va shaxsiy hayotiga mutloq aralashmaydi. Sharqda esa butkul boshqa narsani kuztamiz. Sharqda jamoaga asosiy e'tibor beriladi.

Tarixdan ma'lumki, dunyodagi har bir millatning shu jumladan o'zbeklarning ham aqliy ruhiy qiyofasi ya'ni milliy mentaliteti o'ziga xos tarixiy, etnik tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlar doirasida shakllangani bois, uning jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy hodisalar, tarixiy jarayonlarga bo'lgan munosabati ham turli bo'lishi shubxasiz. Zero, milliy o'ziga xosliklar uzoq tarixiy davrdagi iltimoiy-iqtisidiy, siyosiy jarayonlar, tabiiy geografik o'rnamshuv, o'zaro etnomadaniy aloqalar, diniy mansubliklar asosida qaror topadi va aynan mana shular hamda xalqning ruhiy psixologik qarashlari negizida qadimiy an'analar, urf-odatlar va marosimlar shakllanadi.

Milliy mentalitetimizda turkiylarga xos jihatlar ma'naviy madaniyatimizda, chillak chavgon, ko'pkari, kurash kabi milliy o'yinlarimizda, "quloqtishlar", "beshikkerti", "qalin", "to'qqiz" kabi rasm-rusm va udumlarimizda, yorqin ifodasini topgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, butun jahon bo'yicha ulkan globalizatsion jarayonlar kechayotgan bir vaqtda o'zbek milliy mentalitetini tadqiq qilish, uning nechog'liq umuminsoniy qadriyatlarga mosligini kuzatish imkonini beradi. Shuningdek, xalqimizning qadimiy an'analari, azaliy urf-odat hamda marosimlariga ega bo'lishi bilan birgalikda, o'ziga xos va o'ziga mos milliy mentalitetga ega xalq ekanligidan dalolat beradi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Bekmurodov M. O'zbek mentaliteti xususiyatlari// Ijtimoiy fikr 1998№ 1. 49-bet.
2. K. Shoniyozov. O'zbek xalqining shakllanishi jarayoni.. 8-bet.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., Ma'naviyat. 2008
4. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug'at. – T.:Sharq,1998
5. Nazarov Q., Ochildiyev A. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar. – T.: Yangi asr avlodi, 2002

